chida kommunikativ yondashuvni amalga oshirishning asosiy tamoyillari hamda kichik yoshdagi o‘quvchilarni o‘qitishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan metodlar tahlil qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Турковская Е.В. Содержательная сущность коммуникативного подхода в обучении иностранным языкам. “Иностранные языки в вузе и школе”. Под общ. ред. С.В.Николаенко, Л.М.Вардомацкого, 2017, с. 67–68.

(2). Savignon S.J. «Communicative language teaching». In Byram, Michael. Routledge Encyclopedia of Language Teaching and Learning. London, Routledge, 2000, p. 125–129.

(3). Волжанина А.В. История возникновения и развития коммуникативного метода обучения иностранному языку. Проблемы, перспективы и направления инновационного развития науки. Сб. статей по итогам Международной научно-практической конференции, 2017, с. 58–62.

(4). Richards J.C. Approaches and Methods in Language Teaching J.C.Richards, T.S.Rodgers. Cambridge: Cambridge University Press, 2001, 171 p.

(5). Пассов Е.И. Коммуникативное иноязычное образование: готовим к диалогу культур. Е.И.Пассов. Минск, ООО «Лексис», 2003, 184 с.

(6). Голуб Л.Н. Коммуникативный подход в обучении. Вестник Брянской государственной сельскохозяйственной академии, 2017, с. 64–67.

(7). Конышева А.В. Современные методы обучения английскому языку. Минск, Тетра Системс, 2001, 304 с.

(8). Икрамова Л.Б. Сущность коммуникативного метода обучения иностранным языкам. Б.Икрамова, А.А.Икрамова, Д.С.Рузиева. “Междисциплинарные исследования в науке и образовании. 2014, № 3.

(9). Марахова В.А. Основные трудности формирования коммуникативных универсальных учебных действий у младших школьников. Вестник Московского государственного областного университета, 2013, № 3, с. 23–26.

Palvannazirova Yulduz Hasanboy qizi (Urganch davlat Pedagogika instituti tayanch doktoranti, Xorazm viloyati Pedagogik mahorat markazi pedagogika fani o‘qituvchisi; https://orcid.org/0009-0000-9374-468X; yulduzpalvannazirova@gmail.com)

TALABA-YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH SAMARADORLIGINI TA’MINLOVCHI PEDAGOGIK SHART-SHAROITLAR

Annotatsiya. *Mazkur maqolada talaba yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash samaradorligini ta’minlovchi pedagogik shart-sharoitlar muammosi tadqiq etilgan. Shu nuqtayi nazardan, talabalarda oilaviy hayotga tayyorgarlik kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash tadqiqotning asosiy maqsadini tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida pedagogik va psixologik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy-tahliliy yondashuv, tizimlashtirish, umumlashtirish hamda ilmiy manbalarni kontent tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, talaba-yoshlarni oilaviy hayotga samarali tayyorlash oilaviy qadriyatlarni singdirish, ma’naviy-axloqiy tarbiyani kuchaytirish, kompetensiyaviy yondashuv asosida amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish, interaktiv pedagogik texnologiyalarni qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar: *oilaviy maslahat, pedagogik shart-sharoitlar, oilaviy qadriyatlar, kompetensiyaviy yondashuv, ma’naviy-axloqiy tarbiya, trening interaktiv pedagogik texnologiyalar.*

Палванназирова Юлдуз Хасанбой кизи (Базовый докторант Ургенчского государственного педагогического института; Преподаватель педагогики Центра педагогического мастерства Хорезмской области; ORCID: https://orcid.org/0009-0000-9374-468X;
E-mail: yulduzpalvannazirova@gmail.com)

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОЙ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЁЖИ К СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ

Аннотация. *В данной статье исследуется проблема педагогических условий, обеспечивающих эффективность подготовки студентов к семейной жизни. С этой точки зрения основной целью исследования является выявление педагогических возможностей формирования у студентов компетенций готовности к семейной жизни. В процессе исследования были использованы методы анализа педагогической и психологической литературы, сравнительно-аналитический подход, систематизация, обобщение и контент-анализ научных источников. Результаты исследования показали, что важное значение для эффективной подготовки студентов к семейной жизни имеют формирование семейных ценностей, усиление духовно-нравственного воспитания, развитие практи-*

ческих навыков на основе компетентностного подхода и применение интерактивных педагогических технологий.

Ключевые слова: *семейное консультирование, педагогические условия, семейные ценности, компетентностный подход, духовно-нравственное воспитание, тренинг, интерактивные педагогические технологии.*

Palvannazirova Yulduz Hasanboy qizi (PhD Student at Urgench State Pedagogical Institute Lecturer of Pedagogy at the Pedagogical Skills Center of Khorezm Region; ORCID: https://orcid.org/0009-0000-9374-468X; E-mail: yulduzpalvannazirova@gmail.com)

PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR ENSURING THE EFFECTIVENESS OF PREPARING UNIVERSITY STUDENTS FOR FAMILY LIFE

Annotation. *This article examines the pedagogical conditions that ensure the effectiveness of preparing university students for family life. From this perspective, the main purpose of the study is to identify pedagogical opportunities for developing students' competencies related to readiness for family life. The research employed methods such as the analysis of pedagogical and psychological literature, comparative-analytical approach, systematization, generalization, and content analysis of scientific sources. The findings indicate that the effective preparation of students for family life requires the promotion of family values, the strengthening of moral and ethical education, the development of practical skills based on the competency-based approach, and the application of interactive pedagogical technologies.*

Keywords: *family counseling, pedagogical conditions, family values, competency-based approach, moral and ethical education, training, interactive pedagogical technologies.*

Kirish. Talaba-yoshlarni nikoh va oila munosabatlariga puxta tayyorlash zamonaviy pedagogika fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri sanaladi. Bo'lajak oilaparvar avlodni tarbiyalashning samaradorligi ta'lim muassasalarida yaratilgan tarbiyaviy-pedagogik muhit, metodik ta'minot va qulay tashkiliy omillarga bevosita bog'liq hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-qarorida "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi [1;45-b.] oliy ta'lim sohasini takomillashtirish, uni zamonaviy talablar asosida yangilash, xalqaro mezonlarga mos raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash hamda talabalarning intellektual, ma'naviy va ijtimoiy salohiyatini yuksaltirish ustuvor vazifalar qatorida belgilangan.

Ushbu vazifalar yoshlarni mustaqil hayotga, jumladan, sog'lom va barqaror oilaviy munosabatlarni qurishga tayyorlash zaruratini yanada kuchaytiradi. Bundan tashqari, oliy ta'lim muassasalari talaba-yoshlarni nikoh va oila munosabatlariga ongli ravishda tayyorlash borasida salmoqli tarbiyaviy-pedagogik salohiyatga ega. Xususan, ta'lim dasturlari tarkibiga oilaviy qadriyatlar, er-xotin munosabatlari va oilaviy mas'uliyatga oid mavzularni kiritish, amaliy yo'naltirilgan maxsus kurslar hamda seminar-treninglarni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash samaradorligi bo'yicha bir qancha olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar. Xususan, M.Quronov yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, oilaviy qadriyatlarni shakllantirish zarurligini ta'kidlagan [2;57–59-b.]. O.Musurmonova esa oilada ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirish, oilaviy madaniyat va oilaviy munosabatlarni takomillashtirish masalalarini tadqiq qilgan [3;78-b.]. Shu bilan bir qatorda, R.Mavlonova, B. Xodjayev, N.Egamberdiyeva va boshqa pedagog olimlarning ishlarida shaxs tarbiyasida oilaning o'rni, ma'naviy tarbiya va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari tahlil etilgan [4;89–92-b.].

MDH mamlakatlari olimlari orasida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash va pedagogik tizimni takomillashtirish muammosi bo'yicha V.A.Slastenin, I.P.Podlasiy, ilmiy ishlari alohida ahamiyat kasb etadi.

V.A.Slastenin pedagogik jarayonda shaxsni ijtimoiy hayotga tayyorlashning nazariy asoslarini ishlab chiqqan bo'lsa [5;345-b.].

I.P.Podlasiy tarbiya jarayonida kompetensiyaviy yondashuv talabalar bila amaliy ishlar seminar treninglar olib borish zarurligini ta'kidlagan [6;38-b.].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada talaba yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash samaradorligini ta'minlovchi pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash maqsadida nazariy tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Muammoga oid pedagogik, psixologik va sotsiologik adabiyotlar tahlil qilinib, ilmiy manbalar qiyosiy o'rganildi hamda umumlashtirildi.

Natijalar. O'rganilgan ilmiy manbalar va mavjud pedagogik tajribalar asosida talabalarning oilaviy hayotga tayyorgarligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi bir qator muhim omillar belgilab olindi.

Birinchidan, ta'lim jarayoniga oilaviy qadriyatlar, nikoh madaniyati, er-xotin munosabatlari va oilaviy mas'uliyatga oid mavzularni integratsiyalash zarurligi aniqlandi. Mazkur yo'nalishdagi bilimlarning o'quv fanlari mazmuniga singdirilishi talabalarning oilaga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, talabalarning oilaviy hayotga tayyorgarlik kompetensiyalarini rivojlantirishda seminar-treninglar, munozaralar, keys-stadi, rolli o'yinlar va amaliy mashg'ulotlar kabi interfaol metodlardan foydalanish muhim pedagogik shart sifatida belgilandi. Ushbu metodlar yoshlarda muloqot madaniyati, muammoli vaziyatlarni hal qilish va mas'uliyatli qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Uchinchidan, oliy ta'lim muassasalarida psixologik-pedagogik maslahat xizmatlarini takomillashtirish hamda talabalarga individual yordam ko'rsatish oilaviy hayotga tayyorgarlik samaradorligini oshiruvchi omillardan biri ekanligi aniqlandi. Bunday xizmatlar yoshlarning oilaviy munosabatlarga oid bilim va tasavvurlarini boyitishga yordam beradi.

To'rtinchidan, ta'lim muassasasi, oila va mahalla hamkorligini yo'lga qo'yish talabalarning oilaviy qadriyatlarni chuqurroq o'zlashtirishiga xizmat qilishi belgilandi. Ushbu hamkorlik oilaviy tarbiya va ijtimoiy tajribaning uzviyligini ta'minlaydi.

Muhokama. Olingan natijalar mavzu yuzasidan olib borilgan avvalgi ilmiy tadqiqotlar bilan uyg'unlikda talqin etilganda, oilaviy hayotga tayyorgarlik faqat nazariy bilimlarni egallash bilan cheklanmasdan, balki shaxsning ma'naviy-axloqiy, kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishni talab qilishi aniqlanadi. Ta'lim mazmuniga oilaviy qadriyatlar, nikoh madaniyati va oilaviy mas'uliyatga oid mavzularni integratsiyalash muhim pedagogik omil sifatida belgilandi. Mazkur natija M.Quronov va O.Musurmonovalarning yoshlarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashda milliy-ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish zarurligi haqidagi ilmiy qarashlarini tasdiqlaydi. Shuningdek, tadqiqotda seminar-treninglar, munozaralar, keys-stadi va rolli o'yinlar kabi interfaol metodlardan foydalanish talabalarning oilaviy hayotga tayyorgarlik kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali vosita ekanligi aniqlandi.

Ushbu natijalar I.P.Podlasiyning kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan pedagogik qarashlari bilan hamohang bo'lib, ta'lim jarayonida nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Interfaol metodlar orqali talabalar oilaviy munosabatlarda uchrashi mumkin bo'lgan vaziyatlarni modellashtirish, muammolarni tahlil qilish va maqbul qarorlar qabul qilish tajribasiga ega bo'ladilar.

Tadqiqot natijalari psixologik-pedagogik maslahat xizmatlarining mavjudligi ham oilaviy hayotga tayyorgarlik samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Bu holat U.Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasidagi shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi mikroijtimoiy muhitlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik haqidagi g'oyalarni tasdiqlaydi.

Oliy ta'lim muassasalarida tashkil etilgan psixologik maslahat xizmatlari talabalarning oilaviy munosabatlarga oid qarashlarini shakllantirish, shaxslararo muloqot madaniyatini rivojlantirish va kelajakdagi oilaviy muammolarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, natijalar talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash samaradorligi ta'lim jarayonida yaratilgan pedagogik shart-sharoitlarga bevosita bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Oilaviy qadriyatlar va nikoh madaniyatiga oid bilimlarni ta'lim mazmuniga integratsiyalash, interfaol pedagogik texnologiyalardan foydalanish, psixologik-pedagogik maslahat xizmatlarini rivojlantirish hamda oila-ta'lim muassasasi-mahalla hamkorligini mustahkamlash talabalarning oilaviy hayotga tayyorgarlik kompetensiyalarini samarali shakllantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash samaradorligini ta'minlovchi pedagogik shart-sharoitlarni ta'lim tizimiga izchil tatbiq etish kelajakda mustahkam oilalarni shakllantirish, yoshlarning oilaviy hayotga moslashuvini yengillashtirish hamda jamiyatning ma'naviy va ijtimoiy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Takliflar:

1. Oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlariga oilaviy hayotga tayyorgarlik va nikoh madaniyatiga oid maxsus modullarni kiritish maqsadga muvofiq.
2. Talabalarning oilaviy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan seminar-treninglar, keys-stadi va amaliy mashg'ulotlar sonini oshirish zarur.
3. Oliy ta'lim muassasalarida psixologik-pedagogik maslahat markazlari faoliyatini takomillashtirish lozim.
4. Oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligiga asoslangan tarbiyaviy loyihalarni keng joriy etish tavsiya etiladi.

5. Talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning kompetensiyaviy modelini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[1]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-qarori. Toshkent, 2017-yil 20-aprel.

[2]. Quronov M. Milliy tarbiya va yoshlar ma’naviyati. Toshkent, “Ma’naviyat”, 2008, 256-bet.

[3]. Musurmonova O. Oila ma’naviyati – milliy g‘urur. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1999, 192-bet.

[4]. Mavlonova R., To‘rayeva O., Xoliqberdiyev K. Pedagogika. Toshkent, “O‘qituvchi”, 2018, 528-bet.

[5]. Сластенин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Педагогика: учебное пособие для студентов высших учебных заведений. М., Издательский центр “Академия”, 2013, 608 с.

[6]. Подласый И.П. Педагогика. Новый курс, учебник для студентов педагогических вузов, в 2 кн. М., Гуманитарный издательский центр “Владос”, 2018, 57 с.

[7]. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1979, 330 p.

Boltayeva Nasiba Ilhom qizi (Buxoro Innovatsiyalar universiteti o‘qituvchisi, Buxoro davlat Pedagogika instituti “Maktabgacha ta’lim” kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi)

BO‘LAJAK TARBIYACHILARDA STEAM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA IQTISODIY TARBIYA BERISH KO‘NIKMALARINI BOSQICHMA-BOSQICH SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bo‘lajak tarbiyachilarda STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) texnologiyasi asosida maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy tarbiya berish ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantirish metodikasi asoslab berilgan. Tadqiqotda tarbiyachilarni tayyorlashning to‘rt bosqichli (motivatsion-qadriyatli, nazariy-bilim, amaliy-texnologik va refleksiv-baholash) uslubiy tizimi ishlab chiqilgan hamda har bir bosqichning mazmuni, metodlari va kutilayotgan natijalari yoritilgan. Nazariy tahlil va xorijiy tajriba umumlashtirilib, tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligini ta’minlovchi pedagogik shart-sharoitlar aniqlangan.*

Kalit so‘zlar: *maktabgacha ta’lim, iqtisodiy tarbiya, STEAM texnologiyasi, bo‘lajak tarbiyachi, kasbiy kompetentlik, bosqichma-bosqich shakllantirish, uslubiy tizim, iqtisodiy savodxonlik.*

МЕТОДИКА ПОЭТАПНОГО ФОРМИРОВАНИЯ НАВЫКОВ ЭКОНОМИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ У БУДУЩИХ ВОСПИТАТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ STEAM ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация. *В данной статье обоснована методика поэтапного формирования у будущих воспитателей навыков экономического воспитания детей дошкольного возраста на основе технологии STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics). В исследовании разработана четырёхэтапная методическая система подготовки воспитателей (мотивационно-ценностный, теоретико-когнитивный, практико-технологический и рефлексивно-оценочный этапы), раскрыты содержание, методы и ожидаемые результаты каждого этапа. На основе теоретического анализа и обобщения зарубежного опыта определены педагогические условия, обеспечивающие профессиональную готовность воспитателей.*

Ключевые слова: *дошкольное образование, экономическое воспитание, технология STEAM, будущий воспитатель, профессиональная компетентность, поэтапное формирование, методическая система, экономическая грамотность.*

METHODOLOGY FOR THE STEP-BY-STEP DEVELOPMENT OF ECONOMIC EDUCATION SKILLS IN FUTURE EDUCATORS BASED ON STEAM TECHNOLOGIES

Annotation. *This article substantiates a methodology for the stage-by-stage formation of future preschool teachers' skills in providing economic education to preschool children based on STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) technology. The study develops a four-stage methodical system of teacher preparation (motivational-value, theoretical-cognitive, practical-technological, and reflective-evaluative stages) and describes the content, methods, and expected outcomes of each stage. Through theoretical analysis and the synthesis of international experience, the pedagogical conditions ensuring teachers' professional readiness are identified.*

Keywords: *preschool education, economic education, STEAM technology, future teacher, professional competence, stage-by-stage formation, methodical system, economic literacy.*